

**EVRISTIK YONDASHUV VA INTERAKTIV STRATEGIYALAR
YORDAMIDA O‘QUVCHILARDA IJODIY FIKRLASHNI KUCHAYTIRISH**
Eshkuvatov Jasur Buribayevich,

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tadqiqotchisi
jasureshkuvatov290@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada maktab ta’limida, ayniqsa ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari faoliyatida kreativlikni rivojlantirish masalasi hamda bu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan metodik yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – evristik va interaktiv o‘qitish texnologiyalari yordamida ona tili va adabiyot o‘qituvchilari va o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirish jarayonini tahlil qilish, maktab sharoitida samarali qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashdir. Ishda qo‘llanilgan asosiy metod – ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, mavjud tajribalarni umumlashirish va taqqoslashdan iborat. Maqolada ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda kreativlikning o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni, uni shakllantirish va rivojlantirish shartlari, shuningdek, sinf muhitini kreativ makonga aylantirishning pedagogik usullari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, ona tili va adabiyot darslari, pedagogik yondashuv, evristik texnologiyalar, interaktiv metodlar, kreativ pedagog, ta’lim jarayoni.

**УСИЛЕНИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ
ПОСРЕДСТВОМ ЭВРИСТИЧЕСКОГО ПОДХОДА И
ИНТЕРАКТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ**

Аннотация. В статье освещается вопрос развития креативности в школьном образовании, особенно в деятельности учителей родного языка и литературы, а также методические подходы, обеспечивающие активное участие учителя и учащихся в этом процессе. Основная цель исследования – проанализировать процесс развития креативности у учителей и учеников родного языка и литературы с помощью эвристических и интерактивных технологий обучения, определить возможности их эффективного применения в школьных условиях. Основной метод работы – анализ научно-педагогической литературы, обобщение и сопоставление существующего опыта. В статье подробно рассматривается роль креативности в деятельности учителя и ученика при преподавании родного языка и литературы, условия её формирования и развития, а также педагогические приёмы превращения учебной среды в креативное пространство.

Ключевые слова: креативность, уроки родного языка и литературы, педагогический подход, эвристические технологии, интерактивные методы, креативный педагог, образовательный процесс.

ENHANCING STUDENTS' CREATIVE THINKING THROUGH A HEURISTIC APPROACH AND INTERACTIVE STRATEGIES

Abstract. The article explores the issue of developing creativity in school education, particularly in the work of native language and literature teachers, as well as methodological approaches that ensure the active participation of both teachers and students in this process. The main aim of the study is to analyze the process of fostering creativity among teachers and students of native language and literature through heuristic and interactive teaching technologies, and to identify opportunities for their effective application in school settings. The primary method used is the analysis of scientific and pedagogical literature, as well as the generalization and comparison of existing practices. The article provides a detailed discussion of the role of creativity in the activities of teachers and students when teaching native language and literature, the conditions for its formation and development, and the pedagogical techniques for transforming the classroom environment into a creative space.

Keywords: creativity, native language and literature lessons, pedagogical approach, heuristic technologies, interactive methods, creative teacher, educational process.

Kirish. Bugungi maktab ta'limida hamon an'anaviy, ya'ni reproduktiv (takrorlovchi) metodlar keng qo'llanmoqda. Biroq faqat ma'lumot yetkazishga asoslangan "passiv" metodlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini cheklab, ularda kreativ fikrlash va yangicha yondashuvlarni izlash ehtiyojini susaytiradi [4].

Maktab amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ba'zi o'quvchilar bilim olish jarayonida passiv bo'lib qoladi, mustaqil qaror qabul qilishdan qochadi. Ayniqsa, tayyor qoliplarga ko'nikish – konformizm – kuchayganda, ular noodatiy vaziyatlarda mustaqil fikrlashga qiynaladilar. Shu bois, maktab o'qituvchilari oldidagi asosiy vazifalardan biri – kreativ pedagogik yondashuvlar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, noodatiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va yangi g'oyalarni sinab ko'rishga tayyorgarlikni shakllantirishdir. Bu esa dars jarayoniga interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishni taqozo etadi.

Kreativlik – bu yangi g'oyalarga sezgirlik, ularni qabul qilish va yangidan-yangi yechimlar topish qobiliyati sifatida tushuniladi. Maktabda kreativlikni rag'batlantirish savol-javoblar, ochiq topshiriqlar, o'quvchilarni mustaqil qaror qabul qilishga undash orqali amalga oshirilishi mumkin [1].

Kreativlik – har qanday innovatsion jarayonning ajralmas qismi, chunki yangilik yaratish kreativ yondashuvsiz mumkin emas. Bugungi kunda kreativlikni rivojlantirish nafaqat psixologik, balki ta’limiy-metodik nuqtayi nazardan ham o’rganilmoqda. Ayniqsa, ona tili va adabiyot fanlarini o’qitadigan maktab o’qituvchilari uchun bu dolzarb, chunki mazkur fanlar o’quvchilarda tahliliy fikrlash, badiiy-estetik idrok va kreativ tafakkurni shakllantirishni talab etadi.

O’qituvchi darsni rejalashtirayotganda va maqsadni belgilayotganda o’z kreativ salohiyatidan foydalansa, ta’lim sifati oshadi; aks holda, qat’iy qoliplar uning imkoniyatlarini cheklab qo’yishi mumkin. Shu sababli maktab dasturlari, dars ishlanmalari va metodik qo’llanmalar ham o’quvchilarda kreativlikni rivojlantirishga yo’naltirilgan holda yangilanib borilishi zarur.

Bugungi maktab o’quvchilari turli zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanadi. Shu bois, ilgari samarali bo’lgan usullar ayrim hollarda kutilgan natijani bermaydi, chunki texnologik taraqqiyot ta’lim jarayoniga tubdan ta’sir qilmoqda [1].

Shu sababli, maktab o’qituvchilari yangi strategiyalar va metodologiyalarni qo’llashga tayyor bo’lishlari kerak; dars berish jarayonida an’anaviy metodlarni yangilash, baholash mezonlarini qayta ko’rib chiqish zarur.

Kreativ o’qituvchi – bu doimo o’z pedagogik qobiliyatlarini rivojlantiradigan, dars jarayonini innovatsion shakllarda tashkil etishga intiladigan shaxsdir. U nafaqat dars berish usullarini yangilaydi, balki o’quvchilarning ehtiyojlarini chuqurroq tushunishga harakat qiladi. Shu jarayonda faqat isbotlangan samaradorlikka ega metod va dasturlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ pedagog o’quvchilar uchun o’zini erkin ifoda etish imkoniyatlarini yaratadi – masalan, ochiq savollar, ijodiy loyihalar yoki o’quvchilar tomonidan boshqariladigan munozaralar orqali. Bunday pedagog darsni yangi, samarali shakllarda taqdim etishga intiladi. Kreativ yondashuv dars mazmunini yangilash, mavzuni o’quvchilarning mustaqil izlanishiga yo’naltirish va ma’lumotni noodatiy usullarda yetkazish demakdir [5].

O’qituvchi ishining samaradorligi ko’p jihatdan sinfdagi ijtimoiy muhitga bog’liq. O’quvchilar erkin savol berishi, munozaralarda qatnashishi va xato qilishdan qo’rqmasligi mumkin bo’lgan xavfsiz muhit – kreativlikni rivojlantirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Bundan tashqari, o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi o’zaro hurmat bolalarda o’ziga ishonchni kuchaytiradi. Kreativ shaxsning eng muhim belgisidan biri ham aynan shu – o’z kuchiga bo’lgan ishonchdir. Shu bois, baholash jarayoni faqat natijaga emas, balki o’quvchining nima o’rganganini tushunishiga yordam berishga qaratilishi kerak. Talaba o’zi bilan raqobat qilishga, o’zining avvalgi natijalaridan o’tishga intilsa, bu yondashuv o’quvchilar orasidagi bevosita raqobatdan ko’ra samaraliroq bo’ladi.

Fikr va soʻz erkinligi – bu oʻquvchilarda kreativ va yaratuvchan qobiliyatlarni shakllantirish uchun eng muhim omillardan biridir. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, affektiv-kognitiv fonning mavjudligi – yaʼni oʻquvchining his-tuygʻulari va tafakkuri uygʻunlashgan muhit – kreativlikning oʻsishi uchun zarur shart hisoblanadi [8; 220].

Qiziqish, noaniqlikni qabul qilish, orzu qilish va xavfga borish qobiliyati – bu kreativlikni ragʻbatlantiradigan affektiv-kognitiv tuzilmaning asosiy komponentlaridir. Maktab oʻquvchilarini kuzatish, tajriba oʻtkazish, savollar berish va atrof-muhitni tahlil qilish jarayoniga jalb qilish – bu qobiliyatlarni rivojlantirishning eng samarali yoʻllaridan biridir. Malakali oʻqituvchi oʻquvchilarga turli ilmiy, ijtimoiy va madaniy muammolar haqida axborot berish jarayonida kreativlikni rivojlantirishda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Chunki xavfni oqilona qabul qilish va uni yangi, noodatiy metodlarni sinash hamda oʻrganish bilan uygʻunlashtirish oʻquvchilarda yangicha yondashuvlarni shakllantiradi. Shuningdek, murakkab vaziyatlarni his qilish va ulardan zavqlanish – maktab oʻqituvchilari va oʻquvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishda muhim omil sanaladi. Anʼanaviy metodlar koʻpincha bilimni toʻgʻridan-toʻgʻri yetkazish va qatʼiy tuzilmalarga asoslanadi, bu esa oʻquvchilarning innovatsiyalar va yangi gʻoyalar yaratishdagi ishtirokini cheklaydi. Aksincha, muammo yechishga va tadqiqotga yoʻnaltirilgan yondashuvlar murakkablikni oʻrganish, kashf qilish, tajriba qilish imkoniyatini beradi, oʻquvchilarni jarayonga faol jalb qiladi va ularning ichki motivatsiyasini oshiradi [9; 65].

Shuni ham taʼkidlash kerakki, kreativlikni rivojlantirish uchun zarur boʻlgan fikrlash tuzilmasi nafaqat divergent (erkin va turfa) fikrlashni oʻstirishni, balki uning zaif tomonlarini ham tushunishni talab qiladi. Oʻqituvchilar noodatiy gʻoyalarni qadrlashni boshlasa, ular oʻquvchilarning kreativ qobiliyatlarini yanada rivojlantira oladi. Axir koʻplab kashfiyotlar va ixtirolar aynan noodatiy va gʻayrioddiy savollardan boshlangan. Shu sababli, oʻquvchilarning noodatiy va “mantiqsiz” koʻrinadigan savollari va javoblarini ragʻbatlantirish juda muhim. Bu ularda yangi nuqtai nazardan fikrlash, turli qarashlarni qiyoslash, murakkab muammolarga turli rakurslardan yondashish koʻnikmasini shakllantiradi. Oʻqituvchi oʻquvchilarga muammoning turli jihatlariga eʼtibor qaratish topshirigʻini berganida, savollar soni va sifati ortadi, bu esa ularning kreativ salohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Savollar sifati va kreativlikni rivojlantirish metodikasi. Oʻqituvchi tomonidan beriladigan savollarning sifati kreativlikni rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mazmunli, ochiq va qiziqarli savollar oʻquvchi ongida moslashuvchan fikrlashni shakllantiradi, ularni yangi javoblar qidirishga undaydi. Shu sababli, dars jarayonida beriladigan savollar faqat maʼlumotni tekshiruvchi emas, balki oʻquvchini ijodiy izlanishga, tahlil va sintez qilishga majbur etuvchi boʻlishi lozim.

Kreativlikni rivojlantirishning o‘quv-metodik tuzilmasi – bu maktab o‘qituvchisi faoliyatining eng muhim jihatlaridan biridir. Kreativ metodlar va strategiyalar yordamida malakali pedagog hatto murakkab yoki mavzuga mos kelmaydigan materialni ham kreativ tarzda o‘rgata oladi, sinfda “kreativ makon” yaratadi. Agar o‘qituvchi bilimni o‘quvchilarga noodatiy usullar yoki yangi jarayonlar orqali yetkazsa, bu kreativ metod sifatida baholanadi [10; 533].

Shunday qilib, maktab o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirish evristik va interaktiv ta’lim texnologiyalari orqali samarali amalga oshiriladi. Evristik mashg‘ulotlar – bu muammoga yo‘naltirilgan, tadqiqot xarakteridagi darslar bo‘lib, ular yuqori darajadagi guruh ichidagi o‘quv kommunikatsiyasini talab qiladi.

O‘quvchilarni qidiruv-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish va o‘quv jarayonidan begonalashish fenomenini bartaraf etish uchun quyidagi shartlar muhim:

O‘quvchining shaxsiy tajribasi va qiziqishiga asoslangan qidiruv xarakteridagi o‘quv-bilish faoliyatiga jalb etish;

dars jarayonida zamonaviy o‘quv-metodik ta’minot (multimedia, interfaol platformalar, raqamli resurslar)dan foydalanish;

muammoli-tadqiqot, faol va jamoaviy o‘qitish strategiyalarini qo‘llash;

o‘quvchilarning subyektiv ta’limiy mahsulot yaratishi, uni tahlil qilishi va o‘z-o‘zini baholash imkoniyatiga ega bo‘lishi;

amaliy yo‘nalishga ega bo‘lgan ochiq topshiriqlar berish, ularning interaktivligi tufayli yuqori darajadagi o‘quv kommunikatsiyasi va faollikni ta’minlash;

turli shakldagi joriy nazorat (o‘zini nazorat qilish), jamoaviy refleksiya va o‘quvchilarning natijalarini o‘z-o‘zini baholashni yo‘lga qo‘yish.

Kreativ ko‘nikmalar qiymatini baholash uchun esa, o‘qituvchi kreativlik fenomenining amaliy ahamiyatiga e’tibor qaratishi lozim. Chunki kreativlik maktab o‘quvchilari uchun nafaqat estetik va intellektual rivojlanish vositasi, balki hayotiy muammolarni hal qilish, yangi g‘oyalarni yaratish va o‘zini ifoda etish uchun eng muhim kompetensiyalardan biridir.

Kreativlik – zamonaviy maktab ta’limining asosi va uni rivojlantirish yo‘llari. Kreativlik – bu yangi va mos narsalarni yaratish qobiliyati bo‘lib, u nafaqat biznes va tadbirkorlik, balki pedagogika sohasida ham global maqsadlarga erishish uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi [2, S. 94].

Biroq ko‘plab maktab o‘qituvchilari uchun bu tushuncha hali hamon yetarlicha amaliy ahamiyatga ega bo‘lmagan vosita sifatida ko‘riladi yoki “boshqarib bo‘lmaydigan”, “aniqlash qiyin” bo‘lgan mavhum kategoriya sifatida qabul qilinadi. Ko‘pincha odamlar ongida “kreativlik” so‘zi buyuk, originalligi bilan ajralib turadigan g‘oyalar, yirik kashfiyot va san’at asarlari bilan bog‘lanadi. Bunda g‘oyalarning yangiligi birinchi darajali omil sifatida ko‘rilsa-da, ularning ta’lim

jarayoniga yoki o'quvchilarga amaliy foydasi ko'pincha ikkinchi darajada qolib ketadi [3;3].

Ammo maktab ta'limida kreativlikni rivojlantirishning mohiyati – bu faqat g'oya yaratish emas, balki g'oyalarni amalda qo'llash, ularni hayotga tatbiq etishdir.

Kreativlikni rivojlantirish uchun samarali usullarni ta'kidlab o'tamiz.

o'quvchini tadqiqot faoliyatiga rag'batlantirish;

tadqiqot jarayonida mustaqil ishlarni keng qo'llash;

o'quv jarayoniga interaktiv usullarni joriy etish.

Interaktivlik ta'lim jarayonida faqat texnik vositalardan foydalanish emas, balki jonli muloqot, fikr almashish, hamkorlikda yechim topish jarayoni sifatida tushuniladi. Bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqani faollashtiradi, o'quvchilarga yangi g'oyalar yaratish va ularni amalga oshirish uchun imkon beradi [5;12].

Zamonaviy sharoitlarda, ayniqsa pandemiya davrida keng tarqalgan masofaviy ta'lim interaktiv texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligini yanada kuchaytirdi. Shu bois, maktab o'qituvchilarining kreativligini oshirish doirasida ularni onlayn platformalar uchun materiallar yaratish, interfaol darslarni loyihalash va elektron resurslardan samarali foydalanishga jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi [1;11].

Natijada o'qituvchi nafaqat o'quv jarayonini samarali tashkil etadi, balki zamonaviy pedagog faoliyatining murakkab sharoitlariga ham tayyor bo'ladi.

Bugungi maktab ta'limida ko'pincha yetishmayotgani – bu g'oyalar yoki kreativlikning o'zi emas, balki yangilikni amaliyotga joriy etish, ya'ni g'oyalarni hayotga tatbiq etishdir. Shu bois, o'qituvchi va o'quvchilarda kreativ fikrlashni faqat rivojlantirish emas, balki uni amalda qo'llashga yo'naltirish eng asosiy vazifa sifatida qaralishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, kreativlik maktab o'qituvchisi uchun – yangi imkoniyatlarga eshik ochadigan, ta'lim jarayonida betakror yondashuv va yechimlarni topishga yordam beradigan, ilg'or g'oyalarni faol qabul qilib, ulardan maqsadlarga erishish uchun samarali foydalanishga imkon beradigan o'ziga xos vositadir. U nafaqat darsning mazmunini boyitadi, balki o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ularni izlanishga, tajriba qilishga, yangi g'oyalarni sinab ko'rishga undaydi. Shu bois, maktab ta'limida kreativlikni rivojlantirish – bu faqat zamonaviy metodlardan foydalanish emas, balki pedagogik jarayonning mazmunini yangilash va o'quvchi shaxsini erkin, mustaqil va yangilikka ochiq qilib tarbiyalashning asosiy shartidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Асташова Н.А. Развитие креативности будущего учителя музыки в профессиональном образовании // Педагогика искусства. – [Электронный

ресурс]. Режим доступа: – <http://www.art-education.ru> / АЕ-magazine № 3, 2013. – Заглавие с экрана (Дата обращения 22.11.20).

2. Айсувакова Т.П., Борисевич М.М., Лебедева О.П., Сорокопуд Ю.В. Формирование способности к самообразованию у студентов гуманитарных специальностей на основе мобильных и интернеттехнологий (опыт МОСКОВСКОГО МЕЖДУНАРОДНОГО УНИВЕРСИТЕТА) // Мир науки, культуры, образования. 2020. № 3 (82). С. 266-268.

3. Гоман Ю.В., Цыганова Д.Д. Развитие креативности у будущих инженеров в процессе изучения творчества Сальвадора Дали // Актуальные проблемы художественно-эстетического и нравственного воспитания и образования детей и молодежи: традиции и новаторство. - Липецк: Липецкий государственный педагогический университет имени П.П. Семенова-Тян-Шанского, 2020. - С. 94-98.

4. Крылов Д.А. Виртуальное образовательное пространство как инновационная составляющая техногенной образовательной среды вуза // Современные наукоемкие технологии. 2016. № 9. С.118-123.

5. Капина А.А., Сорокопуд Ю.В. Подготовка учителей иностранного языка к использованию byодтехнологии // Мир науки, культуры, образования. 2020. № 5 (84). С. 234-236.

6. Орлов А.А. Портрет «сетевой личности» в контексте теории поколений // Педагогика. 2019. №10. С. 12-23. Simplicio J.S. «Teaching classroom educators how to be more effective and creative teachers,» Education, 2000, ch. 3, pp. 675-680

7. Williams F.E., Creativity project, Macalester College Saint Paul Minnesota, 1970, ch. 2, pp. 140-145. Paul E. «Torrance, Fostering Academic creativity in gifted students», Eic EC Digest, U.S.A, 1990, ch. 3, pp. 220-223. Sternberg R.J. and William S.W., “How to develop student creativity,» in Proc Association for supervision and curriculum development, Virginia, 1997, pp. 65-67.

8. Reilly R.C., Bramwell L.F., and N. Kronish, “A Synthesis of Research Concerning Creative Teachers in a Canadian Context,» Journal of Teaching and Teacher Education, vol. 27, no. 1, pp. 533-542, 2011.